

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNING EKOLOGIK HUQUQ VA MAJBURIYATLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.

Niyozjon Sultanova

Xorazm yuridik texnikumi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dolzarb hisoblangan ekologik huquq va majburiyatlarning huquqiy asoslari haqida so‘z yuritilgan, yurtimizda ekologik huquq va majburiyatlarning amalga oshirishda davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tilingan.

Kalit so‘zlar: Ekologik huquq, ekologik majburiyat, ekologik burch, ekologik konsepsiya, tabiiy resurslar, tarixiy yodgorliklar, ekologik muvozanat, milliy strategiya.

O‘zbekistonda inson va fuqarolarning ekologik huquqlari va burchlarini kafolatlash va ularga rioya qilishni ta‘minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Inson va fuqarolarning ekologik huquqlari ularning jamiyatda tug‘ilishi, yashashi va hayot kechirishidagi, asosiy jarayon bo‘lib, uning jamiyatda qulay atrof-muhitda yashashi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z salomatligi, genofondini davom ettirish va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashashi, o‘z salomatligini atrof-muhitning ararli ta‘siridan muhofaza qilish va tiklashda hamda davlat tomonidan qabul qilingan ekologik qonun talablariga qat‘iy amal qilishda namoyon bo‘ladigan munosabatdir.

Inson va fuqarolarning ekologik burchi esa ekologik huquqlardan foydalanish va ularga amal qilish jarayonida davlat tomonidan qabul qilingan ekologik qonunlar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilish va ularni o‘z vaqtida bajarishda ko‘rinadigan, ekologik huquq va erkinliklarni kafolatlashda fuqarolar tomonidan amal qilish majburiyati hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan barcha ekologik qonunlar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 30-oktabrdagi PF – 5863 son Farmoni bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi va boshqalar fuqarolarning ekologik huquqlari va burchlarini ta‘minlash va kafolatlashning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, fuqarolarning ekologik huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta‘minlashda maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu kabi islohatlarni tahlil qilar ekanmiz, fuqarolarning ekologik huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo‘llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma –bosqich implementatsiya qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli

a'zosi sifatida ekologiya sohasida o'nlab xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilib, bir qator muhim majburiyatlarni amalga oshirish yuzasidan milliy dastur va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirmoqda. Inson va fuqarolarning huquqlari, jumladan, ekologik huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnomalarga qo'shilish inson huquqlarini himoya qilishning samarali milliy tizimini yaratishga xizmat qilmoqda. Xususan, inson huquqlarini himoya qilish sohasini tartibga solishga qaratilgan 12 ta kodeks va 750 ga yaqin qonun qabul qilinib, ekologiya sohasida ham bir qator yangi normalar kiritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ekologik huquqiy normalar o'z ifodasini topganligi ham shular jumlasidandir. Tabiatdagi global iqlim o'zgarishlari, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq vaziyatning tobora keskin tus olayotgani, ekologik xavfsizlikni g'oyat dolzarb masalaga aylangani sababli ekologik masalalarning asosiy qonunimizda o'z aksini topganligini alohida ta'kidlash o'rindir. E'tiborli tomoni shundaki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlatimiz ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlari, fuqarolar yuridik shaxslarning ekologik huquq va majburiyatlariga oid qoida-talablar ham ifodasini topgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 49-moddasida "Har kim qulay atrof muhitga, uning holarti to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi", deb ko'rsatilgan. Inson va fuqarolarning huquqiy maqomida ularning tabiatini muhofaza qilishga oid majburiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda asosiy qomusimizning bir qator moddalarida fuqarolarning ekologik majburiyatlari belgilangan. Fuqarolar "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida ko'rsatilgan insonning yashash uchun qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqi va bu muhitni saqlab qolish borasidagi burchi sifatida O'zbekiston respublikasi aholisi o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga ega. Ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko'rilayotga chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat

boyliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart" ekanligiga qat'iy rioya qilishlari lozimligi o'z ifodasini topganligini ko'rish mumkin. Shuningdek 61-moddada "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi", deb e'tirof etilgan. O'zbekiston zamini nafaqat tarixiy, ilmiy va tabiiy meros obyektlariga, balki tabiatning noyob, qayta tiklanmas, takrorlanmas va go'zal maskanlarga boy yurt hisoblanadi.

Yurtimizda UNESCO madaniy va tabiiy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan obyektlar ham anchani tashkil etadi. Ushbu noyob tabiiy yodgorliklarning asrab-avaylanishi va ularni har tomonlama muhofaza qilinishi fuqarolarimizning konstitutsiyaviy burchi hamda davlat organlarining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Asosiy qonunimizning 62-moddasida fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishiga majbur ekanligi alohida ko'rsatilgan. Demak, fuqarolar tabiatni muhofaza qilish, yer, suv, o'rmon, chiqindilar, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda atmosfera havosini muhofaza qilish, yerosti boyliklari to'g'risidagi qonun talablarini amalga oshirishlari lozim bo'lib, ushbu konstitutsiyaviy norma tabiatni muhofaza qilish har bir fuqaroning kundalik ishi va majburiyati ekanligidan dalolat beradi. Eng asosiysi, Konstitutsiyamizning 68-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", deyilgan. Mazkur norma har bir davlatning suvereniteti avvalambor uning hududidagi tabiiy resurs va boyliklarga mustaqil egalik qilish huquqi mavjudligidan, xalqimizning umummilliy boyligi, ya'ni davlatimizning mulki sifatida konstitutsiyaviy norma bilan mustahkamlanganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish prinsipi asosida, ya'ni belgilangan ekologik qoidalar va talablarga amal qilgan holda ulardan turli maqsadlarda foydalanish mumkinligi belgilangan. Bundan tashqari, tabiiy resurslarning huquqiy holati bevosita davlat organlarining eng muhim vazifasi sifatida muhofaza qilinishini ta'minlash asosiy vazifa ekanligi aniq ko'rsatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Ekologiya huquqi" J.T. Xolmo'minov 2025-yil Toshkent.
2. Mirziyoyev Sh. M. 2022—2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta bo'yicha MILLIY STRATEGIYASI.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.

4. D.Yo.Yormatova. Ekologik monitoring. –T.: “Fan va texnologiya”, 2011. 4. В.И.Коробкин, Л.В.Переделский. Экология для студ

5. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” Toshkent 2025 yangi tahrir.